

Siqilgan gaz va suyultirilgan gaz sotish uchun

SHARTNOMA № 61

Termiz shaxar

24 yanvar 2022 yil

Nizom asosida faoliyat yurituvchi «AGTKSh-Mushtariy» MChJ, keyingi o'rinlarda «Sotuvchi» deb ataladi, direktor D. Alibekova orqali bir tarafdan va Huzar asosida faoliyat yurituvchi Burxon Gabram, bundan keyin «Sotib oluvchi» deb ataladi, apxaba orqali ikkinchi tarafdan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdik

D. Hiyalaba

1. SHARTNOMA PREDMETI

№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Etkazib berish narxi	QQS		QQS bilan yetkazib berish summasi
						Stavkasi	Summasi	
1	Siqilgan gaz	M³	1248	2087		15	390678	2995200
2	Suyultirilgan gaz	Litr						
	Jami:							2995200

- 1.2 «Sotuvchi» ning avtomashinasiga gaz quyish shaxobchasi (AGTKSh) orqali quyish yo'li bilan amalga oshiriladi.
1.3 «Sotib oluvchi» avtomashinaga gaz qo'yilgan sana, maxsulot yetkazish sanasi xisoblanadi.

2. TO'LOV TARTIBI

- 2.1. Mazkur shartnoma tuzilgan vaqtdagi umumiy baxosi 2995200 (Ikki million to'qqiz yuz to'qson besh ming ikki yuz) so'mni QQS bilan tashkil etadi.
2.2. Xaridor tomonidan Sotuvchiga shartnoma baxosini to'lash. Sotuvchining mazkur shartnomada ko'rsatilgan xisob raqamiga pul mablag'larini ko'chirish yuli bilan amalga oshiriladi. Xom ashe material, yokilgi energetik resurslar narxi uzgarganda, shuningdek Uzbekiston Respublikasida mavjud normativ aktlar, karorlar va Birjadagi narx o'zgarishiga qarab shartnomadagi 2.1.-bandidagi summa o'zgaradi.
2.3. Maxsulot uchun tulov olingan kundagi narx bilan amalga oshiriladi.
2.4. Maxsulot «Xaridor»ning ishonchnomasi orkali tarqatish varaqasi asosida beriladi.
2.5. Maxsulot ta'minoti uchun to'lov «Xaridor» tomonidan sotuvchining xisob raqamiga 100% pul o'tkazilgandan keyin amalga oshiriladi.

3. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 3.1. «Sotib oluvchi» gazga qayta jixozlangan avtomashinadan foydalanish davomida, texnika xavfsizligi va texnik xolat uchun to'liq javobgarlik majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
3.2. «Sotib oluvchi» ning majburiyatlari:
a) amaldagi qoidalarga: texnik xolatga, tabiiy gazdan foydalanish masalalari bo'yicha yo'riqnomaga to'liq amal qilish;
b) avtomashinaning gaz ballon uskunasi soz xolatda saqlash;
v) gaz balloning geometrik xajmi va texnik xolati to'g'risida yo'l varaqasida belgi qo'yish;
g) belgilangan tartibda avtomashinaga gaz quyish uchun maxsus ruxsatnoma olish.
3.3. «Sotuvchi»ning xuquqlari:
a) avtomashinaning gaz moslamalarini to'g'ri ekspluatatsiya qilinayotganligini nazorat qilish, o'lchov asboblari sozligini tekshirish;
b) xaydovchining tabiiy gazda ishlashga xuquqi borligi xaqidagi guvoxnomasini tekshirish;
v) «Sotib oluvchi» belgilangan qoidalarga, gaz quyish reglamentiga va shartnoma shartlariga rioya qilmaslik xolati aniqlanganda, tabiiy gaz berishni to'xtatish.
3.4 «Sotuvchi» va «Sotib oluvchi» gaz xajmining o'rtacha kunlik normasidan kelib chiqqan xolda oylik gaz miqdorini bir maromda uzatishi va qabul qilishi shart, «Sotib oluvchi» tabiiy gaz iste'moli davomida yuzaga keladigan kelgusi o'zgarishlar xaqida yil choragi boshlanishidan 15 kun oldin «Sotuvchi» yozma xolda yoki telefonogramma orqali ma'lum qilish shart. «Sotuvchi» AGTKSh dagi uskunalarining navbatdagi joriy remontini amalga oshirishdan 15 kun oldin (sotib oluvchi) ogoxlantiradi.

4. GAZ XISOBI

- 4.1. «Sotib oluvchi»ga berilgan gaz miqdori tarqatish qaydnomasi bo'yicha aniqlanadi. 4.2. «Sotib oluvchi» berilgan siqilgan gazning miqdori davlat standartini tomonidan 13.01.95 yildan (reg № 418) tasdiqlangan. «AGTKShda yuborilgan gaz hajmini o'lchash va uning xisob kitobi bo'yicha qo'llanma. RD O'z 51-034-94» asosida «O'zbekneftgaz» milliy kompaniyasi tomonidan 28.11.95 yilda tasdiqlangan «AGTKSh» da iste'molchiga tarqatilgan gaz xajmini aniqlash jadvaliga muvofiq «Sotuvchi»ning o'lchov asboblari orqali aniqlanadi.

5. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

5.1. Shartnomada ko'rsatilgan tabiiy gaz umumiy xajmidan ortiq miqdorda olingan gaz uchun qo'shimcha kelishuv rasmiylashtiriladi. Ajratilib olinmagan gaz uchun 01.01.2022 y. amaldagi narxi bilan jarima to'laydi. «Sotuvchi» va «Sotib oluvchi» quyidagi xollarda gaz xajmini ko'paytirish yoki kamaytirishga xuquqlari va bu uchun javobgar emasdirlar.

- a) kutilmaganda gaz quvurlari, shaxar, elektr, gaz tarmoqlarida sodir bo'lgan avariya xollarida;
- b) yongin, zilzila, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlar yuz berganda;
- v) magistral gaz quvurlari, shaxar elektr, gaz tarmoklarining tавbatdagi joriy remonti, xamda shu bilan bog'liq bo'lgan sinov va payvandlash ishlari davomida.

5.2. Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilishi bo'yicha tomonlar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan javobgardirlar.

6. FORS – MAJOR

6.1. Taraflardan biri shartnomaning yengib bo'lmaydigan kuch ya'ni favqulodda muayyan sharoitida oldini olib bo'lmaydigan, vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-xavo sharoiti, xukumat tadbirlari, xokimiyat organlarining qarorlari, ichki tartib buzarliliklar va boshqa tabiiy ofatlar) fors major tufayli bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa javobgar bo'lmaydi.

6.2. Mazkur ishartnoma bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni va xolda O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonunlari talablari bo'yicha javobgar bo'ladi.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BOSHQA SHARTLARI.

7.1. Tomonlar shartnomani imzolagan kundan boshlab (g'aznachilik boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng yoki imzolangan kundan) qonuniy kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabr gacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, ikkala nusxa bir xil va teng kuchga ega. Taraflarning xar birida mazkur shartnomaning bir nusxasi mavjud.

7.3. Shartnomada ko'rsatilmagan masalalar bo'yicha yuzaga kelgan nizolar taraflarning muzokaralari yo'li bilan xal qilinadi.

7.4. Nizolar taraflarning muzokaralari yo'li bilan xal qilish imkoni bo'lmagan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf qilish borasida qonunchilikda ko'zga tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so'ng ularni Iqtisodiyot sudiga ko'rib chiqishga topshiriladi.

7.5. Mazkur shartnomaga kiritilgan xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, ular faqat yozma shaklda tuzilib, taraflarning bunga vakolatli vakillar tomonidan imzolanganidan so'ng xaqiqiy xisoblanadi.

7.6. Shartnomani taraflarning uzaro kelishuviga asosan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

7. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

«SOTUVCHI»

«AGTKSH-Mushtariy» MChJ

Termiz shaxar, Tinchlik maxallasi

x/ir: 20208 000 804 320 525 001

OATB «Agrobank» Termiz filiali

MFO: 00349, INN: 204967315

OKED: 01470

QQS tulovchining kodi: 22120024022

Direktor: D. Alibekova

«SOTIB OLUVCHI»

Buxolm jabiam arxibu

Термиз ш. ф. Набавий кўчаси 30-9-йў

400121860224017013300065001

УНН: 200474125. МҚР: 00014

Молия вазирлиги Таъминоти

2340208030010008-1010. МҚР: 00014

УНН: 201822919

Директор: Д. Илгараева

Қўрсатқич: С. Гафаров

Бир Таъминот

Бухолм долу тоъинот

